

**O'RTA ASRLAR TARIXIY YODGORLIKLARIDA QO'LLANILGAN  
BEZAKLARNING TADRIJIY RIVOJLANISHI****Muminova Sevara Olovitdin qizi***Mutahassisligi:**Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti.**5A150903 – Dizayn (Interyer) (97-928-62-14)*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada O'rta asrlar yodgorliklarida qo'llanilgan bezaklarning tadrijiy yani bosqichma - bosqich rivojlanib borishi O'rta Osiyoda me'morchilik bilan tasviriy san'atning birgalikda rivojlanib kelganligini O'rta Osiyo me'moriy bezaklarida asosan geometrik, o'simliksimon, epigrafik (ya'ni naqshsimon yozuvli bezak), tirik mavjudotlar, zoomorf (hayvonlar) naqshlar, antroporf (odam), afsonaviy mavjudotsimon naqsh turlari mavjudligi yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Zarautsoy, Shaxta, geometrik naqshlar, Varaxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa, Panjiket, "Qizil zal",*

Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O'zbekiston hududida madaniyat, san'at, arxitektura qadimdan rivojlanib kelgan. Xususan, rangtasvir, naqqoshlik va haykaltaroshlik san'ati turlari qadimdan rivojlangan. Naqshning paydo bo'lishi qoya toshlarga borib taqaladi. Naqshlar tarixi insoniyatning badiiy madaniyati kabi qadimiydir. Ular orqali insonlar o'zining dunyoqarashini, ilohlarini va kundalik hayotini ifodalashga harakat qilishgan. Masalan, Zarautsoy, Shaxta nomli g'or tasvirlarida ov jarayonlari o'z ifodasini topgan. Asosan ovchilik bilan kun ko'rgan qabilalar o'z omadlarini sinab ko'rish uchun qaysidir hayvon tasviriga kamondan o'q uzib yoki nayza otib bugungi ov barorini aniqlashga harakat qilganlar. Shuningdek, kamayib ketayotgan hayvonlarning suratini chizishgan. Bu bilan kamayib ketayotgan hayvonlarning ko'payishiga ishonishgan. Ov jarayoni chizilgan tasvirlarda ibtidoiy odamlar o'zlarining ov qilish tartibini yoritishga harakat qilishgan. Ular bilan hayvonlar o'rtasida bog'liqlik yuzaga kelgan. Ularga atab qurbonliklar qilishgan. Ko'p hollarda qoyaga ishlangan tasvirlarda qurbonlik qilish jarayonining o'sha davrda o'ziga xos tomonlariga e'tibor berilganligini payqash mumkin. Jumladan, ko'pchilik tasvirlarda odamlarning qurbonlik qilinayotgan hayvonni har tarafidan o'rab olganligini ko'ramiz. Bu bilan ular qurbonlik qilinayotgan hayvonga o'z hurmatini namoyon qilishgan. Naqshunigorga bag'ishlangan tasvirlar negizida ham ramziy ifodalar nazarda tutilgan. Masalan, neolit davriga oid qoyatosh suratlarida ko'proq geometrik naqshlar: romb, xoch (krest), o'rtasida nuqta qo'yilgan doira va boshqalar ishlangan. Mazkur naqshlar orqali ular o'zlarining quyosh, oy va yulduzlarga bo'lgan e'tiqodini ifodalashgan. Shu yodgorlikning ayrim qismlarida buqa boshi va boshqa hayvonlar tasviri hamda odam yuzi va qo'li ifodalangan. Mazkur naqshlarda so'nggi

tosh davri odamlarining astral e'tiqodlari, quyosh, oy va umuman koinotga sajdalari ramziy ifodalangan.

O'rta Osiyoda me'morchilik bilan tasviriy san'atning birgalikda rivojlanib kelganligini miloddan avvalgi to'rtinchi, uchinchi mingyilliklarida ham ko'ramiz. Arxitektura ular uchun nafaqat boshpana, balki ularning tassavurida koinot ramzini ham bajargan. Xona devorlariga chizilgan suratlar orqali ularning koinotga bo'lgan e'tiqodlari ramzi ifodalangan. Xonadonda mo'l-ko'pchilik, boylik, shu bilan birga, turli balo-qazolardan saqlovchi belgi vazifasini ham bajargan. Davr o'tishi bilan arxitektura va tasviriy san'at bir-birini to'ldirgan holda shakllanib borgan. Xususan, miloddan avvalgi 4-3 asrlarga oid Tuproqqal'a obidasida nafaqat shaharsozlik san'atining rivojlanganligi, shuningdek arxitekturaviy kompozitsiyaning va tasviriy san'atning rivojlanganligini ko'ramiz. Bu davrda me'moriy yodgorliklar va tasviriy san'at uyg'unlashganligiga ham guvoh bo'lamiz. Xususan, barel'ef bo'rtma haykaltaroshlik mahobatli rangtasvir san'atiga ko'proq e'tibor berilgan. Xorazmdagi Tuproqqal'a saroyida bir nechta zallar bo'lib, undagi barelef tasvirlarning kompozitsion yechimi saroy zallarining funksional vazifasiga qarab ishlangan. Jumladan, askarlar zalida xonaning uch devorida supa ustidagi valyuta qo'chqor shoxiga monand burama bo'laklar shaklida o'rnatilgan. Valyutalar oralig'ida askarlarning haykallari, valyutalarning ustida sarkardalar haykallari joylashtirilgan. Mazkur xona valyutalarida ham mardlik, jasurlik ramzlari o'z ifodasini topgan. Toxaristondagi Xolchayon saroyida o'tliq askarlarning shiddat bilan ot choptirib borayotganligi tasvirlangan. Qizig'i shundaki, barelef tasvir kompozitsiyasi devorning yuqori qismini uzunasiga egallagan. Mazkur tasvirlarni zalning barcha joyidan ko'rish mumkin. Olimlarning fikricha, bu tadbirda hozirgi zamon tili bilan aytganda ergonomikaga amal qilingandek tuyuladi. Ilk o'rta asrlarda me'moriy yodgorliklar devorlarida mahobatli rangtasvir keng qo'llaniladi. Bunday obidalar qatoriga Varaxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa, Panjiket va boshqa yodgorliklar kiradi. Jumladan, Varaxsha saroyining "Qizil zal"i devorlarida devor yuzasi ufq chizig'i yo'nalishida uch bo'linmaga taqsimlangan. Ularning birida yirtqich hayvonlarning fil ustida borayotganlarning yangi tasvirlangan bo'lsa, ikkinchi bo'linmada fil va yirtqich hayvonlarning bir tomonga qarab borayotganliklari ifodalangan. Uchinchi qatorda daraxt va tuyalar tasviri ishlangan. Qizig'i shundaki xona devorlari qizil rangga bo'yalganligi ham bejiz emas. Qadimgi Jaytun madaniyati turar joylari poli va sig'inishga mo'ljallangan kichik tokchaga ega maxsus bo'linma ham qizil rangga bo'yalgan. Qizil rang mazkur xonaning diniy e'tiqodlarga oid ibodatlarini bajarishga mo'ljallanganligidan dalolat beradi. Bolaliktepa yodgorligida to'rttala devorda ham bir xil mavzuga oid, ya'ni mehmon kutish jarayoni o'z ifodasini topgan. Panjiket saroyida turli mavzuga oid kompozitsiyalar ifodalangan. Haykaltaroshlik san'ati namunalarini ko'proq kichik plastikalarda ko'ramiz, ya'ni kichik-kichik ilohlarning haykalchalariga e'tibor berilgan. Shuningdek, ibodatxona, saroy interyeri devorining yuqori qismidagi yog'och sharafalarda turli mavzularda o'yma tasvirlar

ishlangan. Mazkur dalillar ham ilk oʻrta asrlarda rangtasvir sanʼati bilan haykaltaroshlik sanʼati uygʻun boʻlganligidan dalolat beradi. Lekin mahobatli rangtasvirga alohida eʼtibor berilgan. Ular katta-katta devoriy yuzalarni egallagan.

VIII asrda Oʻrta Osiyoda qaror topgan islom dini oʻzidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din va yangi gʻoya bezakli tasviriy sanʼatga oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmadi. Qadimgi davr sanʼatining chinakam ildizlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan mahobatli rangtasvir yoʻqolib, faqatgina tabiat manzaralari hamda bezakli naqshlar qoldi. Dastlabki, paytlarda shariatda jonli mavjudotni aks ettirishni man etuvchi hech qanday aniq qoida yoki qonunning oʻzi yoʻq edi. Qurʼonda esa bu borada faqat ogohlantirish bilan cheklangan boʻlib, sharob ichish, qimor oʻynash va odam shaklini yasash - “shayton vasvasasi” deb dindorlarni hushyorlikka chaqiradi. Ammo keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharhlar va hadislar koʻproq murosasiz yoʻl tuta borib, qatʼiy ravishda shunday deyilgan: “Tangri yoki odamzot suratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling, aks holda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan boʻladi”. Jonli mavjudotlar suratini chizish man etilishining maʼnosi shundaki, Xudodan boshqa hech kim biror narsa yaratishi u yoqda tursin, hatto Xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qoʻlidan kelmaydi ham, aks holda musavvir xudo bilan bahs boylashib, uning irodasiga shak keltirgan boʻladi [1].

Naqsh (arab.-tasvir, gul) - qism taqsimlari muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil boʻladigan handasaviy shakllar, oʻsimlik, qush va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak (gul) [2]

Oʻrta Osiyo meʼmoriy bezaklarida asosan geometrik, oʻsimliksimon, epigrafik (yaʼni naqshsimon yozuvli bezak), tirik mavjudotlar, zoomorf (hayvonlar) naqshlar, antropomorf (odam), afsonaviy mavjudotsimon naqsh turlari mavjud.

Oʻrta Osiyoda islom dini keng tarqalgach, islom ideologiyasi taʼsirida meʼmorchilikda va devoriy bezak sanʼatida katta oʻzgarishlar yuzaga keladi. Islom dinining ideologiyasi yakka xudolikka daʼvat etadi. Bu oʻz navbatida monumental tasviriy sanʼatning barham topishiga olib keladi. Taʼkidlash joizki, islom dini kirib kelganidan soʻng nafaqat yangi-yangi obidalar turi yuzaga keladi, balki qurilish ashyolarida ham oʻzgarishlar yuz berdi. Jumladan, islom dini keng tarqalgunga qadar pishgan gʻisht juda kam qoʻllanilgan. Islom dini kirib kelgach, maʼmuriy va diniy imoratlar deyarli pishgan gʻishtdan qurila boshlandi. Bu esa oʻz navbatida yangi-yangi konstruktiv qismlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Natijada, obidalar kompozitsiyasida ham oʻzgarishlar paydo boʻladi. Shuningdek, pishirilgan loy-terrakota obidalar ichki va tashqi devorlari naqshlarida ham keng qoʻllanila boshlandi. Dastavval devorlarda turli yoʻnalishda va turli kombinatsiyalarda tekis yuzali naqsh chizilgan boʻlsa, keyinchalik bunday naqshlar boʻrtma uslubida ishlangan. IX-X asrlarga kelib Markaziy Osiyo meʼmoriy bezaklarida dastlab gʻishtin naqshlar bilan bezash yanada rivojlandi. Pishgan gʻishtlar turli shakl va kombinatsiyalar: kvadrat,

to'g'rito'rtburchak, oltiburchak, beshburchak, doira, halqa kabi shakllarga keltirib bezashda qo'llanilgan. Musulmon g'ishti o'lchov birligi asosida ham ishlatilgan. Asosan kvadrat va to'rtburchak shaklidagi pishiq g'ishtlar X-XII asrlarda turli kombinatsiyalar asosida terilgan [3]. Jumladan, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi devorlarida pishgan kichik g'ishtlar turli yo'nalishlarda juft-juft qalash shaxmat taxtasidagidek, archasimon uslubda juft g'ishtlar oralig'ida tik holda jilolangan g'isht joylashtirish va boshqa tartibda terish yo'li bilan boy fakturali kompozitsiyalar yaratilgan. XII asrda Jarqo'rg'on minorasi ham o'ziga xos qavariq sirtga archa shaklida terilgan. XII asrda qurilgan Minorai Kalonda g'ishtlar o'ziga xos uslubda terilgan. XII asrda Buxoroda qurilgan Magoki Attor machiti devorlarida turli ramziy shakllarda terilgan g'ishtlarni ko'rish mumkin.

Ustalar pishgan g'ishtlardan kvadrat, to'g'ri to'rtburchak va olti burchak shaklidagi g'ishtlarni turli shaklda arralab bezak ishlarida foydalanganlar. X-XII asrlarda pishiq g'ishtlarni terishda turli kompozitsiyalardan foydalanilgan. Masalan, IX-X asrlarga oid Somoniylar maqbarasi, XII asrga oid Jarqo'rg'on minorasi, Buxorodagi XII asrga oid Minorai kalon, Magoki attor masjidi va boshqalar.

Shuningdek, X-XII asrlarda ganch yuzada geometrik, o'simliksimon naqshlar yordamida murakkab va boy fakturalar yaratish san'ati me'morchilik bezagida keng qo'llanildi. Jumladan, Afrosiyob saroyidagi devoriy naqshli parcha diqqatga sazovor. Uning yuzasida doira ichida yirik-yirik oltiburchakli yulduz hamda burchaklari bo'rtib chiqarilgan to'rtburchak va boshqa geometrik naqshlar oralarida badiiylashtirilgan o'simliklar nihollari bilan to'ldirilgan kompozitsiya yaratilgan.

Me'moriy bezak turlaridan biri epigrafik naqshlar islom dini o'rnatilgandan keyin kirib kelgan va O'rta Osiyo me'morchiligida asosan X-XI asrlardan boshlab tarqalgan. Me'moriy bezaklarda epigrafik yozuvlarning qo'llanilishida insonlarning bu foniy dunyoda ezgulik yo'lida va halol yashash falsafasi turadi. Ya'ni go'zallik orqali insonlarni ezgu amallarni bajarishga chaqiradi. Ularda "Qur'oni karim" va "Hadis"lardan oyat va namunalar beriladi. Bu yozuvlar naqshga o'xshasa-da, ushbu go'zallik qalbida hikmatlar olami yashiringan bo'ladi. Ushbu yozuvlar me'morchilik qismlari bo'lmish minora, guldasta, peshtoq, qanos, morpech, eshik, gumbaz, ustun, poyustun, darvoza, mehrob, qabr toshlar, shift, sharafa kabilarda o'z aksini topgan. Yozuvlar arab alifbosida, ya'ni asosan kufiy, suls, nasx yozuvlarida ishlangan. Yozuvlar mantiqiy jihatdan diniy, falsafiy, tarbiyaviy mavzularga bag'ishlangan va xattot, homiylar nomlari, me'mor ismi, qurilgan sanasi, tarixi va boshqalar yozilgan bo'ladi. Ular me'moriy bezaklarda shunday yuksak uyg'unlikka va jozibadorlikka, nafislikka ega bo'lishi bilan chuqur mazmun va ma'no aks ettiradi.

XII asrda me'moriy bezakda yangilik yuzaga keldi, ya'ni glazurlangan rangli sopol qo'llanila boshlandi. Bunday bezak minoralar sirtida, yuqori qismida belbog', guldasta kabi, peshtoq tokchalari ustida hamda g'ishtin bezaklar oralarida qo'llanila boshlandi. Umuman bu davr me'moriy bezagida naqshlar rangsiz bo'lishiga qaramasdan ularda

g'ishtin elementlarning bir-biridan bo'rtib ishlanishi natijasida ulardan tushgan soya va yorug'liklarning jilosi devoriy bezak kompozitsiyasini jonlantirgan va o'ziga xos badiiylilik bag'ishlagan. Glazurlangan rangli sopol ko'proq obidalarning tashqi bezagini yaratishda qo'llanilgan.

O'rta Osiyo me'morchiligida XIV-XV asrlarda tasviriy va amaliy san'atning bir necha yangi yo'nalishlari vujudga keldi. O'sha davrda avvalgi mo'g'ullar istilosigacha orttirilgan tajribalar qayta tiklandi va rivojlantirildi. Geometrik, o'simliksimon va boshqa turlar yanada mukamallashdi. Bezaklarni bajarish texnologiyalari takomillashdi. Movarounnahrda bezakning yangi turlari: sirlanib pishirilgan loy o'ymakorligi bezagi (reznaya polivnaya terrakota), sirlangan rang-barang kesma koshin taxtinga terib ishlanadigan bezaklar (mozaika), yaxlit chizib yoki o'yib ishlangan rangli sirkor sopol naqshlar-parchin (mayolika)lardan foydalanilgan. Parchin bu sirlangan yaxlit sopol taxta. Uning yuzasiga chizib yoki o'yib turli ranglar bilan naqsh ishlanadi va sir beriladi. Ana shunday uslubda ishlangan bezakli sopol taxta mayolika deyiladi. Kesma koshin keramika mayolikadan farq qilib, yuzasi faqat bir xil rangga bo'yaladi va sirlanadi.

XIV-XV asrlarda ishlangan tashqi me'moriy bezaklar turli islamiy, girih yoki "madohil" bilan "devoniy" uslubidagi yozuv naqshlarda, xonalar ichkarisidagi sirkor bezaklar asosan lojuvard (binafsha) va feruza ranglik naqshlarda, xattotiy bezaklar esa "suls" yozuvidagi naqshlarda o'z aksini topdi. Bu kabi sirkor rang-barang naqshlar Samarqandda Shohizinda uzlatgohidagi Shodimulk, Amir Husayn, Amirzoda, Shirinbeka oqa kabi maqbaralarda keng qo'llanilgan[4].

Shuningdek, XIV asrda me'morchilik bezaklarida tashqi bezakka nisbatan ichki bezaklar yetakchi o'rinni egallay boshladi. Tashqi devorlarni, minora va boshqalarni bezashda asosan geometrik naqshlar va epigrafik yozuvlar muhim ahamiyat kasb etdi. Geometrik naqshlarda binafsha, ko'k va oq ranglar keng qo'llanildi. Sirli o'yma koshinlar ikki rangda: binafsha yoki binafsha va oq rangda ishlandi. Yassi islamiy koshin bezaklar ikki xil rangdan yetti xil ranggacha bezalgan. Masalan, ko'k, oq, binafsha, qora, sariq, qizg'ish va ayrim hollarda zarhal ranglardan foydalanilgan.

Toshkent naqqoshlik maktablari ko'pincha yashil, havorang va boshqa ranglarning bir-biriga asta-sekin o'tishi, aniq bir koloritga qat'iy rioya qilinishi, geometrik va o'simliksimon naqshlarning ko'p ishlatilishi, ko'pincha yashil koloritga ichki devorlarni bezashi bilan ajralib turadi.

Buxoro naqsh kompozitsiyalarining murakkabligi, mukammalligi, jozibadorligi va mantiqiy geometrik naqshlarning qo'llanilishi, kontrast ranglardan foydalanilishi bilan farq qiladi.

Samarqand naqshlari o'ta guldorligi, tantanavorligi, badiiy harakatchanligi, ramziyligi bilan ajralib, ularda Xitoy, Eron, Hindiston va boshqa davlatlar naqsh elementlari va ularning ta'sirida ajoyib naqsh kompozitsiyalarini ko'rish mumkin.

Kompozitsiyalarda chuqur falsafiy g'oyalar va koinot bilan uzviy bog'liqlik tushunchalari mavjudir.

Naqsh turlari ichida eng ko'p foydalaniladigani o'simliksimon naqshlardir. O'simliksimon naqshlar gul, barg, bog'lam, novda, tanob, band, g'uncha, shkufta, marg'ula, gajak, sirtmoq, kurtak, bargli gul, bofta va boshqa elementlardan tashkil topadi. O'simliksimon naqshlarning xillari ko'p bo'lib, ular qaysi shakl asosida tashkil topsa, naqsh shu nom bilan yuritiladi. Shulardan islimiy gul, islimiy barg, islimiy tanob, islimiy bofta, islimiy zanjira, islimiy madohil, islimiy shobarg, islimiy mehrob deb nomlangan yuzlab turlari mavjud[5] Islimiy naqshlar ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlikda keng qo'llanilgan.

O'simliksimon naqshlar kompozitsiyasi bo'yicha namoyon, ruta, munabbat, madohil, turunj, zanjira, mehrob, davra, morpech, hoshiya, chorburch kabi turlari mavjud. Ularning ayimlari izohiga to'xtalamiz.

Namoyon - forscha so'z bo'lib, ko'rinish, manzara demakdir. Namoyon hech yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir. Namoyon murakkab naqsh turiga kirib, uning kompozitsiyasi o'simliksimon, geometrik, tirik mavjudotlar va boshqalardan tashkil topgan bo'ladi. Agar namoyonda geometrik naqsh bilan o'simliksimon naqsh bir yuzaga ishlansa, girih asosiy, o'simliksimon naqsh esa to'ldiruvchi vazifani bajaradi. Namoyonlar ko'pincha simmetrik bo'ladi. Assimmetrik naqshlar deyarli uchramaydi. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklarida namoyon ichki va tashqi bezaklarda juda ko'p uchraydi.

Samarqand me'moriy namoyonlari o'ziga xos ko'rinishga, mantiqqa, uyg'unlikka va koloritga ega Masalan, Samarqanddagi Sherdor madrasasi devoridagi namoyonda (XVII asr) ramka foniy, ya'ni o'tkinchi dunyo ekanligini, guldon suv borliqni, hayotni bildiradi, islimiy naqshlar esa go'zallikni bildiradi, ya'ni bu bilan naqqosh insonlarga hayotingiz har doim go'zal bo'lsin deya, ishora qilgan. Unda muqaddas kitobimizdagi "Alloh go'zallikni yaxshi ko'radi. U go'zaldir", degan oyat o'z aksini topgan. Insonlarni bu o'tkinchi dunyoda go'zal xulq bo'lishga va go'zal amallar qilishga chorlaydi.

Toshkent namoyonlarida barglar, gullar, novda va boshqalar qat'iy uslublashtirilgan ranglarning nozik farqlanishi Xiva, Farg'ona, Samarqand namoyonlaridan kompozitsion tuzilishi, koloriti va boshqalari bilan farq qiladi.

Turunj - arabcha "limon" degan ma'noni bildiradi. Ruscha medalon, kompozitsiyada ko'pincha markazga chiziladi. U O'rta Osiyoda o'ziga xos ko'rinishga va mazmunga ega bo'lib, qadimdan qo'llanib kelinadi. Turunj naqshining ko'rinishi limon shaklida bo'lgani uchun u shunday deb yuritiladi. Asrlar davomida uning tuzilishi turli shaklda bo'lib, oval, romb, ellips kabi turlari mavjud[6].

Madohil - (arab.-ostona, kirish, eshik) chapu-rost takrorlanuvchi islimiy naqsh turi, u kompozitsiyada chiqish nuqtasi (manbai, ildizi) hisoblanadi. Madohil ko'rinishi jihatdan xilma-xil bo'lib, g'uncha, lola, gul, uch barg va boshqa shakllarda bo'ladi. Ularda qo'shimcha shakllar kiritilishi natijasida ularning nomlari ham o'zgargan.

Jumladan, lola madohili, qo'sh madohil, madohil islimi kabi atamalar fikrimiz isboti bo'ladi. Madohiliy naqshlar me'morchilikda, ayniqsa koshin bezaklarida, ganchkorlikda, yog'och o'ymakorlikda, sangtaroshlikda uchraydi[7].

Morpech - (forscha "mor"-ilon, "pech"-o'ralgan) ilon izi shaklidan iborat bo'lgan islimiy hoshiya naqsh. Morpech ko'pincha namoyon, tokcha, mehrob, izora eshik va boshqalarni chegaralashda ishlatiladi. Morpechni ba'zi ustalar ilon izi deb ham yuritadilar[8].

Ruta - ikki tomonga ulanadigan hoshiya naqshdan bir necha barobar katta bo'lgan naqsh taqsimi. Chizilayotgan naqsh nusxasining xarakteriga qarab ketma-ket, to'nkarma usullarda ulanishi mumkin. O'rta Osiyo me'moriy bezaklarida ruta naqshlari ko'pincha o'simliksimon naqsh kompozitsiyalari ko'p uchraydi. Ular gulli girih, ba'zi hollarda faqat geometrik naqshlardan tashkil topgan bo'ladi[9].

"Kamolotga erishgan naqqoshlar esa o'zining to'plagan tajribasiga tayanib, tabiatdan ilhom olib, gul va yaproqlardan turli-tuman shakllar yasaydi, ularga jimjimador bo'yoqlar beradi, turli naqshlar va chiziqlar bilan bezaydi. Shu tariqa kompozitsiya jihatidan boy naqshu nigorlar dunyoga keladi"[10].

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, me'moriy bezaklar turli xomashyolardan, turli uslublardan va o'ziga xos kompozitsiya qonuniyatlari bilan ishlangan. Naqshlar tabiatning insonlar tasavvuridagi hosilasi bo'lib, geometrik naqshlar butun olam qat'iy tartibda, ma'lum qonuniyatlar asosida tuzilganligini bildirsa, o'simliksimon naqshlar esa tiriklikni va tabiatni, hamda hayot nihoyatda go'zal yaratilganligini anglatadi. Bu bilan insonlarni foniy dunyoda tabiat va borliq qonuniyatlari asosida yashashga hamda go'zal amallar qilishga chaqiradi. Shuning uchun ham naqshu nigorlar har bir xonadonda va me'moriy inshootlarda o'z aksini topgan. Me'moriy bezaklarning interyerlarda qo'llanishi ham o'ziga xos qonun qoidani yaratib o'simliksimon naqshlarni geometrik elementlar bilan qo'llagan holda ko'rishimiz mumkin. Masalan; Samarqanddagi Registon ansanbilining Tillakori madrasasi interyerida ishlatilgan bezaklar, Shoxi Zinda tarkibidagi Qusam Ibn Abbos Majmuasi ichki bezaklarini ham ko'rishimiz mumkin.

*Tillakori madrasasi*—Ulug'bek madrasasi va Sherdor madrasasi bilan birgalikda yaxlit me'moriy ansamblni tashkil etadi. Samarqand Hokimi Yalangto'shbiy Bahodir Madrasa va Jome masjidlarini qurdirgan (1641-1646). Karvonsaroy asosi ustiga Madrasa (shimoliy sharqiy qismida), hujralar peshtoq gumbazli masjid g'arbida joylashgan. Dastlab "Yalangto'shbiy kichik madrasasi" deb nomlangan. Keyinchalik masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga yetadigan miqdorda oltin sarflangani uchun "tillakori" (tilladan ishlov berilgan) deb yuritila boshlagan.

Peshtoq ravog'i ichidagi qalqonsimon bag'ali, guldastasi hamda xonaqoh gumbazi, ichidagi tilla halli bo'rtma naqshlari qayta jilolandi (1974). Baland gumbazi ustiga feruza rang koshin bilan qoplangan gumbaz o'rnatildi. Bosh tarzidagi bezak mavzularining boyligi, ichki va tashqi naqshlarning serxashamliligi, peshtoq qanosi va

tokchasidagi iroqi kashtani eslatuvchi bezaklar, boʻrtma yozuvlar oʻziga xosdir. Ravoq burchaklari, bezakli toqilarni toʻldirishda koshinbaz ustalar turli usullarni qoʻllashgan (gʻishtlarning mayda naqshlari koshinlarning handasaviy va islimiy naqshlari bilan moslashtirilgan). Koshinkori ravoqlarda yashil tangachalar, sargʻish yaproqlar va feruza poyalar aks ettirilgan. Xonaqoh izorasi koshinnamoyon, devori, gumbazi va bagʻal kundal uslubidagi serhasham naqshlarga boy. Mehrob ravogʻi va bagʻali muqarnas kosachalar bilan toʻldirilib, zarhal berilgan hamda Qurʻon oyatlaridan olingan boʻrtma yozuvlar bilan hoshiyalangan. Eshiklar murakkab naqsh va yozuvlar bilan yogʻoch oʻymakorligida pardoqlangan.

Tillakori madrasasida muzey tashkil etilgan boʻlib, unda madrasani taʼmirlashga oid narsalar saqlanadi[11]. Bundan tashqari Shoxi Zinda majmuasining Qusam ibn Abbos yodgorligi interyerida ham bezaklarni koʻrishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Azimov I. Oʻzbekiston naqshu nigorlari. T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1987 yil, 6-bet.
2. A.S.Uralov, A.Gʻ. Haqqulov. Oʻzbekiston arxitektura yodgorliklaridagi koshin bezaklarni taʼmirlash va qayta tiklash. Samarqand: 2021-yil, 6-bet.
3. A. Berdimurodov. Amir Temur maqbarasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010 y., 55-bet.
4. Bulatov S.S. Oʻzbek xalq amaliy sanʼati. T.: Mehnat nashriyoti, 1991 yil, 162- bet.
5. Bulatov S.S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yogʻoch oʻymakorligiga oid atamalar izohli tugʻati. T.: Mehnat 1991- yil, 53-bet.
6. Bulatov.S, A.Muxtorov Ganchkorlik sanʼati “Musiqqa” nashriyoti Toshkent 2006. 28-bet.
7. Bulatov S.S. Milliy timsollar va ramzlar ensiklopediyasi. Toshkent, Taʼlim nashriyoti, 2018, 203-b.
8. Религиозные памятники Центр. Аз. САГА. ЮНЕСКО. 2001.
9. Tasviriy sanʼatning yangi epsiklopedik lugʻati:
10. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: 2002, 4-tom, 237-bet.
11. Gʻafur Gʻulom. Tafakkur jurnali. 1994, № 1. B. 53-54.